

IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHIDA INNOVATSIYALARNING ROLI

Turayev Furqat Xazratovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Moliya iqtisod prorektori Iqtisodchi

Annontatsiya:

Ushbu maqolada iqtisodiyot fani haqida qisqacha aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Bozor, iqtisod, mulk, nuqtai nazar, menejment, fan, usul, rivojlanish, Korxonalar, soha, ilm.

Bozor iqtisodiyotida turli mulkchilikka asoslangan minglab korxonalar faoliyatini tasavvurga sig'dirish qiyin emas. Korxonalar faoliyatini u yoki bu darajadagi boshqaruvini tashkil etish, shu korxonalar rahbarining boshqaruv qobiliyatiga bog'liq. Uning qobiliyati esa menejment sohasidagi bilimlarni qanchalik darajada egallanganligi bilan o'lchanadi. Shu nuqtai nazardan menejment so'zi bizning hayotimizda bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq kirib kelgan so'zlar qatoridan joy oldi. Bizni o'rab turgan borliqni o'rganish usullari fanning uslubiyotini tashkil etadi. Boshqa fanlar kabi «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» fanining uslubiy asosini ilmiy tafakkurning dialektika usuli tashkil etadi. Dialektik usul hamma hodisalar va jarayonlar doimiy o'zgarishda va ozaro bog'liqlikda rivojlanadi, biri ikkinchisini keltirib chiqaradi deb tushuntiradi. Dialektik usul rivojlanish jarayonini oddiy o'sish jarayoni deb emas, balki oddiylikdan murakkablikka, miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'sib o'tuvchi murakkab jarayon deb baholaydi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, korxonaning hozirgi darajasi mutlaq emasligini, ma'lum sharoitlar o'zgarishi bilan o'zgarib turishi, hamma ishlab chiqarish tarmoqlari va omillari ozaro bog'liqlikda harakatlanishini tushunib yetishi kerak. Masalan, chorvachilik tarmog'i dehqonchilikka bevosita bog'liqligini, o'z navbatida chorvachilik tarmog'i dehqonchilik tarmog'ining rivojlanishiga ta'sir etishini tushunib yetish lozim.

Qishloq xo'jaligi asosiy maqsadiga erishishi uchun turli xildagi mahsulotlar etishtiriladi, ishlar, xizmatlar bajariladi, ular talabni qondirish maqsadida taqsimlanadi, sotiladi. Korxonalar, birlashmalar, tarmoqlar (tuman, viloyat, respublika) miqyosida kechayotgan bu jarayonlar erkin bozor munosabatlari asosida



amalgam oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Ularni nazariy va amaliy jihatdan talab darajasida hal etish uchun respublikada tub islohotlarni amalga oshirish zarur.

O'zbekiston Markaziy Osiyoning qulay xududida joylashgan. Uning hududida azaldan insoniyat uchun nihoyatda kerakli hisoblangan turli xildagi qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarildi. Chunki bu hududda tabiiy-iqlim sharoitlar yetarlidir. Jumladan, Respublikada yillik samarali temperatura 26-30° ni tashkil etib, quyoshli soat 3600 dan ortiq bo'lib, bir yilda birnecha marta hosil olish imkonini beradi.

Agrar tarmoqda amalga oshirilayotgan islohotlar tarmoq hamda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda. Bu haqda respublika 1-Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma Majlisidagi ma'ruzasida quyidagi fikrlarini bildirganlar. "Avvalambor, iqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlandi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlandi... Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish o'ajmi o'tgan yili 10,1 foizga oshdi... Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish tizimi tubdan o'zgaroqda, fermerlik qishloqda xo'jalik yuritishning eng istiqbolli va samarali shakli sifatida yetakchi o'rinni egallamoqda- deb yakun yasagan. Lekin, erishilgan natijalar hozirgi o'sib borayotgan talabni to'liq qondiraolmaydi. Shuning uchun ham agrar tarmoqda amalga oshirilayotgan "bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish" asosiy ustuvor vazifa ekanligini Prezident tomonidan belgilangan. Eng asosiy ustuvor vazifa mamlakatni modernizasiya qilish va aholiga munosib turmush sharoitini yaratib berishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гужин А.А., Гужина Г.Н. Материальные интересы в системе экономического роста// Московское научное обозрение. 2012. № 12-1. С. 6
2. Гужина Г.Н. Социально-экономическая сущность и принципы формирования системы стратегического управления//Вестник Российского государственного аграрного заочного университета. 2009. № 6 (11). С. 141.
3. Иванов М.А., Гужина Г.Н. Особенности управления рисками в рыночных условиях//Вестник Российского государственного аграрного заочного университета. 2009. № 7 (12). С. 198.